



O'ZBEK VA JAHON ADABIYOTIDA ILM VA MA'RIFAT TALQINLARI

Makhliyo Mirzaakhmedova

*O'zbekiston respublikasi bank-moliya akademiyasi
"Ijtimoiy fanlar va chet tillari" kafedrasi katta o'qituvchisi
tsul77777@gmail.com*

Annotatsiya Mazkur maqolada Jahon adabiyotidagi ma'rifat, ilm va bilim tushunchalarining mohiyatini tahlil qilindi. Sharq falsafasi va adabiyotida ma'rifat tushunchasi insonning ichki ruhiy-ma'naviy kamoloti bilan bog'liq bo'lib, u madaniy qadriyatlarning asosi sifatida namoyon bo'lganligi aniqlandi. G'arbda esa ilm va bilim izlanishlar, tajribalar va amaliyot orqali erishilgan natija sifatida e'tirof etildi. Qadimiy Ipak yo'lining savdo yo'li sifatidagi roli bilan bir qatorda, uning madaniy va ma'rifiy aloqalarni shakllantirishdagi ahamiyati alohida ko'rsatilib, Sharq ma'rifiy qadriyatlarining universalligi va chegarasizligi ta'kidlandi. Yunon faylasuflari Suqrot va Aflotun, shuningdek, Shekspir kabi G'arb mutafakkirlarining qarashlari orqali ilm va ma'rifatning tarixiy rivoji yoritildi. Maqolada Shekspirning asarlarida ma'rifat va bilimning insonni yuksaklikka olib boruvchi kuch sifatida talqin qilinishi, shuningdek, Rodjer Bekonning bilimni inson hayotini yaxshilash vositasi deb ko'rishi tahlil qilindi. Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy farqlar bilan birga ularning o'zaro ta'siri va uyg'unligi o'rganilib, ilm va ma'rifatning jamiyatning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga qo'shgan hissi ko'rsatildi. Maqola ma'rifatning inson va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, uning har ikki tamaddun doirasidagi talqini hamda taraqqiyotga xizmat qiluvchi universal hodisa ekani keng tahlil etildi.

Kalit so'zlar: Ma'rifat, ilm, sharq falsafasi, g'arb tamadduni, madaniy qadriyatlar, bilimning universalliligi.

ТОЛКОВАНИЯ НАУКИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ В УЗБЕКСКОЙ И МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.

Аннотация В данной статье проанализирована сущность понятий просвещения, науки и знания в мировой литературе. В восточной философии и литературе понятие просвещения связано с внутренним духовным и духовным совершенством человека и обнаруживается, что оно проявляется как основа культурных ценностей. На Западе наука и знания признавались результатом исследований, опыта и практики. Помимо роли

древнего Шелкового пути как торгового пути, подчеркивалась его важность в формировании культурно-просветительских связей, подчеркивалась универсальность и безграничность просветительских ценностей Востока. Историческое развитие науки и просвещения было освещено взглядами западных мыслителей, таких как греческие философы Сократ и Платон, а также Шекспир. В статье проанализирована трактовка просвещения и знания в произведениях Шекспира как силы, ведущей человека к вершине, а также взгляд Роджера Бэкона на знание как средство улучшения жизни человека. Наряду с культурными различиями Востока и Запада были изучены их взаимодействие и гармония, показан вклад науки и просвещения в духовно-нравственное развитие общества. В статье подробно проанализирована роль просвещения в развитии человека и общества, его трактовка в рамках обеих цивилизаций, а также тот факт, что это универсальное явление, служащее развитию.

Ключевые слова: Просвещение, наука, восточная философия, западная цивилизация, культурные ценности, универсальность знаний.

INTERPRETATIONS OF KNOWLEDGE AND ENLIGHTENMENT IN UZBEK AND WORLD LITERATURE.

Annotation This article analyzed the essence of the concepts of enlightenment, science and knowledge in world literature. In Eastern philosophy and literature, the concept of enlightenment is related to the inner spiritual and spiritual perfection of a person, and it was found that it was manifested as the basis of cultural values. In the West, science and knowledge were recognized as the result of research, experience and practice. In addition to the role of the ancient Silk Road as a trade route, its importance in the formation of cultural and educational relations was highlighted, and the universality and limitlessness of the educational values of the East were emphasized. The historical development of science and enlightenment was illuminated through the views of Western thinkers such as Greek philosophers Socrates and Plato, as well as Shakespeare. The article analyzed the interpretation of enlightenment and knowledge in Shakespeare's works as a force that leads a person to the top, as well as Roger Bacon's view of knowledge as a means of improving human life. Along with the cultural differences between the East and the West, their interaction and harmony were studied, and the contribution of science and enlightenment to the spiritual and moral development of the society was shown. The article extensively analyzed the role of enlightenment in the development of man and society, its interpretation within the framework of both civilizations, and the fact that it is a universal phenomenon that serves development.

Key words: Enlightenment, science, Eastern philosophy, Western civilization, cultural values, universality of knowledge.

Tarixdan ma'lumki, qadimdan buyuk ipak yo'li G'arb va Sharqni bog'lab turgan hamda bu erda yashaydigan xalqlarning jamiyat taraqqiyotining oldingi saflaridan joy olishi uchun

katta imkoniyat yaratgan. Buning natijasi o‘laroq ularning hayot-faoliyati, ijodida o‘zaro o‘xshashlik, yaqinlik kuzatilgan. Bu xalqlar orasida nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki badiiy adabiyot, san‘at va madaniyatning ham o‘zaro uyg‘unlashuviga sabab bo‘lgan. Shu bois ham ilmda Ipak yo‘li faqat Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo iqtisodiy aloqalar emas, ayni chog‘da Evropani ma’naviy uyg‘otgan hayotbaxsh yo‘l bo‘lganligi va barcha nurlarning Sharqdan taralgani alohida e’tirof etiladi.

Xuddi shunday irfon, ma’rifat tushunchasining G‘arb adabiyotida aks etishida ham Sharqning hissasini inkor etib bo‘lmaydi.

Aslida, ma’naviy, ruhoniylar olamga oid tushunchalar na millat, na din, na chegaraga ega. Ular butun bashariyat ehtiyojini qondirish va doimo insoniyatni yorug‘lik, ezgulikka chorlashga xizmat qilgan. Shu bois ular bir xalqdan ikkinchisiga, bir joydan boshqa joyga hech qanday to‘siqsiz o‘tib boravergan va o‘z ta’sirini amalga oshirgan. Ma’rifat ham chegara bilmas, millat va din bilan o‘lchab bo‘lmaydigan keng qamrovli tushuncha. Nutqimizda ma’rifat ko‘pincha bilim, ilm tushunchalari bilan birga lug‘atda bilim – ob’ektiv borliq haqidagi muayyan ilmiy, madaniy, ma’rifiy, ma’naviy, harbiy va boshqa sohalarga oid ilmiy, amaliy ma’lumotlar, tushunchalar majmui sifatida izohlangan. Ilm esa o‘qish o‘rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim, ko‘nikma, ma’lumot deya keltirilgan. Ma’rifat bo‘lsa ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g‘oyalar asosida shakllangan kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o‘stirishga qaratilgan faoliyat sifatida izohlanadi.

Nutqimizda ko‘pincha ma’rifat ilm, bilim tushunchalari bilan yaqin ma’noda qo‘llaniladi. Ba’zan ular bir birini to‘ldiruvchi o‘zaro ma’nodosh sifatida ishlatiladi. Chunonchi, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan bu so‘zlarning izohlanishiga e’tibor qilsak, fikrimiz o‘z tasdig‘ini topadi.

Bu tushunchalar o‘rganmoq nuqtai nazaridan bir nuqtada birlashsa ham mazmun mohiyat jihatidan farqlanadi va ular orasidan ma’rifat ustunroq ekanligi ayonlashadi.

Ma’rifat so‘zini hozirgi kunda biz “ziyoli”, “o‘qimishli”, “bilimli”, “bilimdon” kabi belgini atovchi so‘zlardan yasalgan ot sifatida tushunamiz. Bu shu so‘zning bugungi muosir ma’nolaridir. Aslida ma’rifat arabcha so‘z bo‘lib bilish, tanish, bilim ma’nolarini anglatadi. Lug‘atlarda arabiy ‘arafa – bilmoq, tanimoq fe’lidan hosil bo‘lgan mazkur so‘z “arafa” “ma’rifatun” “irfatun” ko‘rinishlarida ham kelishi qayd etilgan. Yana ‘arafa fe’li o‘zagidan maorif, orif, ma’rif (mashhur, ma’lum ma’noda), ta’rif, irfon, urf, urfon, irfoniylar kabi so‘zlar ham hosil bo‘lgan. Mutaxassislar arabcha ‘arafa – tanimoq fe’li ‘alama – bilmoq fe’lidan farqlanishini qayd etishgan. Ularning ta’kidlashicha, ma’rifat shaxsning ichki, ruhiy – ma’naviy holati, bilim, ilm esa uning sa’y harakati, intilish, izlanishlarining samarasi, mahsuli sanaladi.

Demak, ma’rifat tanish ma’nosini ifodalaydigan ekan, bu insonning qalb, nazar va fikr yo‘li bilan olamni va uning yaratuvchisini anglashdir. Zero, Haq taolo insonni o‘zini tanishi uchun yaratgani muqaddas Qur’oni karimning bir qator oyatlarida zikr etilgan. Jumladan, “Baqara” surasining 30,31 oyatlarida shunday keltirilgan: "Men er yuzida bir xalifa paydo

qilmoqchiman", deganini eslang. Shunda farishtalar: "Erda buzg‘unchilik qiladigan, qon to‘kadiganni xalifa qilasanmi, holbuki biz Senga hamdu sano aytish bilan ulug‘laymiz va Seni pok tutamiz-ku!", deyishdi. Parvardigoringiz: "Men sizlar bilmagan narsani bilaman", dedi. Va Alloh Odamga hamma narsaning nomini o‘rgatdi, so‘ngra ularni farishtalarga ro‘para qildi va: "Agar rost gapirgan bo‘lsanglar, Menga bularning nomini aytib beringlar", dedi.

Alloh taolo Odam alayhissalomga jannatda O‘zi yaratgan narsalarning nomini bildirishni ilhom qildi va bu nomlarni farishtalarga ham ko‘ndalang qildi: "Agar so‘zlaringiz rost bo‘lsa, mana bu narsalarning nomini Menga aytib beringlar-chi!" Tafsirlarda insonga berilgan ilmning cheksiz-chegarasiz ekaniga ishora borligi izohlanib, insonning bilim darajasi hatto farishtalarnikidan ham ustun ekani va Odam alayhissalomning ilmi bevosita Alloh taoloning ilmiga suyanishi, bu ilm nazar va fikr yo‘li bilan hosib bo‘lib, unda biror xatolik yoki yanglishish bo‘lmasligi, chunki bu ilmni odamzod bevosita Allohning O‘zidan olgani aytib o‘tilgan. Demak, Alloh va uning yaratilishi olam, odam, hayvonot va nabotot sirlarini bilish, o‘rganish – bilim. Ularning yaratilish asosi, vazifasi, mohiyatini tafakkur etish va xulosa qilish ma‘rifatdir. Masalan, borliq gultoji bo‘lgan odamning jismi undagi a‘zolarining tuzilishi, faoliyatini tajriba va kuzatish orqali o‘rganamiz lekin bu odamzodning yaratilish sababi, ma‘naviy ruhoniylar olami kamol va zavolining sabablarini o‘rganish bilan bir xil mazmunni anglatmaydi. Birinchi o‘rganish – bilim bo‘lsa ikkinchi o‘rganish esa ma‘rifatdir. Ma‘rifat ko‘proq ma‘naviy – ruhoniylar olami anglash mazmunini ifodalaydi.

Ma‘rifat tushunchasiga Sharq va G‘arbda turli xil qarashlar mavjud bo‘lib va bu yondashuvlar shu xalq va millatlarning tarixi, madaniyati, turmush tarzi, diniy qarashlari va boshqa xalqlarning tasiri ostida ma‘no jihatidan biroz farq qilinishini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, sharqda ruhoniylar hayot haqiqatini yoritish mazmunini ifodalovchi mazkur tushuncha G‘arbda qanday ifodalangan? Buni G‘arb mutafakkirlarining bu boradagi qarashlari asosida izohlashga harakat qilamiz.

Qadimgi Yunoniston va Rimdagi faylasuflarning ma‘rifat, bilim, o‘zini anglash va tushunish haqidagi qarashlarini ko‘rib chiqamiz. Suqrot nazarida, bilim kishini yaxshi ishlarga etaklovchi mayoq, va u cheksiz ekanligini, bilim negizida axloq, etika, estetika muammolari yotishini ta‘kidlagan. Bundan tashqari Suqrotning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Uning fikricha, “Bilim insonni Xudo qilmasada uni Xudoga yaqinlashtiradi”. Keyinchalik muqaddas “Injil” kitobida ham ushbu fikrlar keltirilgan. “Xudo aqli o‘tkirga emas, qalbi ochiqqa o‘zini namoyon etadi; yuragi tozalar baxtiyordir, chunki ular Xudoni ko‘radilar.

Yuqoridagi bilim haqidagi fikrlarga xulosa sifatida shuni aytyshimiz mumkinki, bilimlilik, chiroyli axloqqa ega bo‘lish, ezgulik, qalbning go‘zalligi, odamlar bilan xushmuomalada bo‘lish bu inson ma‘rifatining asosiy belgisi ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Nemis faylasufi, ilohiyotchisi va tabiatshunos olimi Alberd fon Bolshtedning fikriga ko‘ra “ilmiy bilishning asosiy usuli kuzatishdir. Aql hissiyotdan ajralmas, bilish idrok qilish va

tafakkur yuritishning birligidan iborat” Buyuk faylasuf xudoni mushohada qilish inson uchun eng oliy holat deb qaraydi va uning uchun axloq vijdonning mahsulidir deydi.

Akviniyalik Foma (1225 yil) ning fikriga ko‘ra, bilish insonning eng oliy vazifasi xudoni bilish, tanish va bu insonni baxtga eltadi. Biz Fomaning bilish (tajriba, aql, imon, umid, va muhabbat) haqidagi fikrlariga qo‘shilamiz va shuni ham aytib o‘tish joizki “ma‘rifatli bo‘lish” insonni ongli shaxs sifatida ulg‘ayishida muhim ahamiyatga ega.

Qomusiy bilimga ega bo‘lgan olim va faylasuf Rodjer Bekonning fikriga ko‘ra “Bilim inson hayotini yaxshilash, qudratini yuksaltirish uchun kerak” degan fikrlarni beradi. Va u o‘zining “Katta asar” nomli kitobida ixtirolar davlatning gullab yashnashi uchun juda kerakli deb biladi. Demak bilim olish, o‘rganish, mushohada etish, tahlil qilish va hayotga yangicha bilim va ixtirolarni tadbiq etish albatta inson uchun ham o‘z davlati rivoji uchun ham kerakli ekanligi aytilgan.

Piko della Mirandola (1463-1495) u o‘zining «Insonning qadr-qimmatini to‘g‘risidagi nutq» nomli kitobida insonlarning bu dunyodagi tutgan o‘rnini belgilaydi va inson murakkab mikrokosm bo‘lib o‘zida erga, hayvonga, Xudoga xos unsurlarni mujassamlashtirgan deb aytadi. Shuning uchun ham Xudo tomonidan yaratilgan inson hayvon darajasida tubanlashishi ham, xudojo‘ylikning, olijanoblikning eng yuqori pillapoyalariga ko‘tarilishi ham mumkin. Pikoning fikriga ko‘ra inson o‘zining taqdirini o‘zi yaratadi, yulduzlar emas, balki uni erkinligining holati, faolligining darajasi hal qiladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, inson Xudo tomonidan mukammal takomillashtirilganligi bilan boshqa mavjudodlardan farq qiladi.

Roggerdamlik Erazm (1469-1536) ma‘rifatparvar faylasuf elni ma‘rifatli qilish uchun Tavrot va Injilda berilgan parchalar bilan qanoatlanmasdan ularni mukammal o‘rganish kerak “aql ishtirokisiz ma‘rifat yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” degan xulosani oldin suradi. Demak aql inson uchun har doim va har vaqt kerakli hamda bilim olish uchun kitoblardan parchalarni o‘rganish emas balki ularni mukammal o‘rganish kerakligi aytilgan.

Renessans davridagi inson antik zamon va o‘rta asr kishisidan o‘z faoliyatini hech qanday taqiqlarsiz bajarish imkoniga ega bo‘lgani, o‘z turmush tarzini o‘zi belgilay olishi, o‘ziga o‘zi hukumronlik qilish imkoniga ega bo‘lganligi bilan ajralib turadi.

Uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri insonning olamdagi jamiki mavjudod, hatto, o‘zining ustidan ham hukumronligi bilan izohlanadi hamda bu davrda insonlar o‘zini o‘zi o‘zgartirishni boshlagan. Bunday o‘zgarishlarni Shekspirning bir talay asar qahramonlari orqali bilishimiz mumkin. Renessans davrining buyuk vakillaridan biri bo‘lgan Shekspir va shu davrning buyuk faylasuflari ijodida Bilim, ilm, ma‘rifat, o‘zini anglash, tafakkur, o‘zini taftish qilish, xudoni bilish, tanish, va aql tushunchalari qanday ifodalanganligini ko‘rib chiqamiz.

Yunon olimlaridan Suqrot ham, Demokrit ham, Aflotun ham axloq masalalariga alohida to‘xtalganlar. Jumladan, bu mutafakkirlarning quyidagi fikrlari, hikmatlari diqqatga sazovor: “Mard bo‘lish uchun, mardlik haqidagi bilimni egallash kerak”, “Qanoatli bo‘lish uchun,

hissiyotlarga yo‘l qo‘ymaslik kerak”, “Adolatli bo‘lish uchun, bironlarga qanday qilib yaxshilik qilishni o‘rganish kerak”, – deb Suqrot ta’lim bersa, axloqni birinchi marta bilim bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlasa, Aflotun yaxshilik g‘oyasi haqida fikr yuritib, “yaxshilik g‘oyasida go‘zallik, me’er, haqiqat” kabi tushunchalar uyg‘unlashgan bo‘lishini baen etadi. Demokrit esa “insonni baxtli qiladigan narsa pul ham emas, jismoniy kuch ham emas, balki haqiqat va har tomonlama donolikdir”, “Eng og‘ir paytda o‘z burchiga sodiq bo‘lib qolish, buyuk ishdur”, “Me'yordan o‘tib ketsa, shirin narsa ham achchiqdur”, – deydi.

G‘arbda ma’rifat talqini Sharqdagi ta’rif bilan uncha ham o‘xshash emasligini ko‘rishimiz mumkin. “Ma’rifat – uyg‘ongan tushuncha holati. Bu ruhiy ozodlikka erishish uchun azob-uqubat va istakning ustunligi deb ta’riflanishi mumkin. Ma’rifatli bo‘lish – chuqur ma’naviy xotirjamlik, huzur va yaxlitlikni his qilishdur”.

G‘arb mutafakkirlarining ijodida bilim, ma’rifat haqida quyidagi hikmatli so‘zlarni ko‘rishimiz mumkin. Shekspirning talqinicha:

“Ignorance is the curse of God; knowledge is the wing wherewith we fly to heaven”. Shekspir bu so‘zlar orqali Ignorance is the curse of God- Bilimsizlik xudoning qarg‘ishi, knowledge is the wing wherewith we fly to heaven-bilim esa jannatga eltuvchi qanot deya tariflaydi.

“I say there is no darkness but ignorance”. Bu hikmatli so‘z orqali Shekspir shu fikrni ta’kidlaydi: “Agar omilik bo‘lmasa g‘aflat (darkness) ham bo‘lmaydi”. Ingliz tilida ignorance so‘zi bilimsizlik, g‘aflat ma’nolarini anglatadi. Shekspir har doim bilimli, ma’rifatli bo‘lishni ta’kidlaydi.

Uyg‘onish davrining yana bir adibi Sir Philip Sidney ijodida ham bilim, ma’rifat juda yuqori o‘rinni egallaydi: Masalan, “to know, and by knowledge to lift up the mind from the dungeon of the body to the enjoying his own divine essence”, “Bilim va bilish – inson vujudidagi zindondan, ilohiy borliq sari etaklovchi yo‘l”. Bu hikmatli so‘z orqali Sir Philip Sidney Bilim va bilish orqali inson o‘zini anglashini, tushunishini ta’kidlamogda.

Ma’rifat so‘zining yana bir ma’nolaridan biri bu chiroyli axloqqa ega bo‘lishdur. G‘arb mamlakatlari odob axloq masalalariga ham alohida urg‘u berishgan. Evropa Uyg‘onish davrining mutafakkirlari axloqiy qadriyatlarga axloq nuqtai nazardan emas, balki real, amaliy axloq, hayotiy, dunyoviy nuqtai nazaridan qaray boshladilar. Golland faylasufi Spinoza axloqni ilohiylashtirib talqin etishni tanqid qildi. U aqlni axloqning asosi deb e’tirof etib, kishining xatti-harakatlari faqat uning o‘ziga bog‘liq, odamning o‘zi yaxshi-yomonni ajratishga qodir ekanligini ta’kidlaydi, insonning tafakkuri qudratiga ishonch uning axloqiy ta’limoti yutug‘idir.

“Bilim qudratdur, bilim kuchdur”, – degan edi Frensis Bekon. Forobiy esa shunday fikr bildiradi: “Avvalo to‘g‘rini bilish zarur. To‘g‘ri bilinsa, yanglish ham bilinadi. Biroq avval yanglish bilinsa, to‘g‘riga etib borib bo‘lmaydi”.

G‘arb Uyg‘onish davri vakillarining ilm, ma’rifat haqidagi mazkur qarashlariga tayangan buyuk ingliz dramaturgi Vilyam Shekspir o‘z asarlarida bevosita bilim, ma’rifat, ilm so‘zlarini

nisbatan kam ishlatgani, lekin asar mazmun-mohiyatida o‘zini o‘zi bilish, ma’rifat hosil qilish usul, yo‘l, vositalaridan keng bahs yuritganini ko‘ramiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – 365-B.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.195, 260, 567
3. Vohidov R. , Ne‘matov H. , Mahmudov M. So‘z bag‘ridagi ma’rifat. – T.: Yozuvchi, 2001. – B.12.
4. Navoiy asarlari lug‘ati. – T.: Adabiyot va san'at, 1973. – B.379
5. Botirbek Hasan. Qur'oni karim so‘zlarining arabcha – o‘zbekcha ko‘rsatkichli lug‘ati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1995. – 319
6. Vohidov R. , Ne‘matov H., Mahmudov M. So‘z bag‘ridagi ma’rifat. – T.: Yozuvchi, 2001. – B.14.
7. Tantoviy Muhammad Sayyid. Payg‘ambarlar tarixi (Qur'oni Karim qissalari)/Tarjimon Ziyovuddin Rahim. – T.: “O‘qituvchi”, HMIU, 2021 – B.608.
8. G‘arb falsafasi. Tuzuvchi va ma'sul muharrir Q Nazarov. – T.: “Sharq”, 2004. – 67, 68, 240, 265 b.
9. История эстетики. Памятники мировой эстетической мысли. М., 1962, Т.1., стр. 507.